



**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MILLIY G'URUR VA  
VATANPARVARLIK TUYG'ULARINI SHAKLLANTIRISH**

**Muxiddinova Maxliyoxon Zoxidjon qizi**

*University of business and science nodavat ta'lismuassasi Maktabgacha ta'lism yo'nalishi 24\_15  
guruh Elektron pochta: muxiddinovamaxliyo5@gmail.com Telfon raqam: +998938051616*

**Ergashbaev Shohbozbek**

*Namangan davlat pedagogika instituti tayanch doktaranti Elektron pochta:  
ergashbayevshohbozbek2@gmail.com Orcid: 0009-0007-1884-8949 Telfon raqam: +998941765550*

**Anotatsiya:** *Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishning ahamiyati, pedagogik yondashuvlar hamda samarali metodlari tahlil qilinadi. Milliy g'urur va vatanparvarlik yosh bolalar ongida ilk tarbiyaviy ta'sirlar orqali shakllanib, ularning kelajakdagi ijtimoiy faolligi va fuqarolik pozitsiyasiga asos bo'ladi. Tadqiqot davomida xalq og'zaki ijodi, o'yin texnologiyalari, badiiy adabiyot va tarixiy-madaniy meros asosida shakllantirishga qaratilgan usullar ko'rib chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Maktabgacha ta'lismilliy g'urur, vatanparvarlik, tarbiya, pedagogik yondashuv, o'yin texnologiyalari, xalq og'zaki ijodi, tarixiy-madaniy meros, oilaviy tarbiya, innovatsion metodlar.*

## **KIRISH**

Milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ulari shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida asosiy ahamiyat kasb etuvchi omillardandir. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarda ushbu tuyg'ularni shakllantirish ularning kelajakdagi fuqarolik pozitsiyasi, milliy qadriyatlarga hurmati va ijtimoiy faolligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lismiz so'nggi yillarda sezilarli darajada rivojlanib, 2023-yil holatiga ko'ra, maktabgacha ta'lismuassasalariga qamrov darajasi 62 foizga yetdi. Bu ko'rsatkich bolalarning ilk yoshdanoq sifatli ta'lism-tarbiya olish imkoniyatlarini kengaytirib, ularning ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga zamin yaratmoqda[1]. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi, milliy o'yinlar, badiiy adabiyot va san'at asarlari muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, ota-onalar va pedagoglarning hamkorligi, ta'lismuassasalarini va mahalla institutlari o'rtasidagi integratsiya ushbu jarayonning samaradorligini oshiradi. Kelgusi yillarda maktabgacha ta'lismizda milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga qaratilgan dasturlarni yanada takomillashtirish orqali bolalarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishi yangi bosqichga ko'tariladi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatda milliy qadriyatlarni asrash va rivojlantirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilib, so'nggi yillarda bu borada qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini mustahkamlash, ularda milliy qadriyatlar va Vatanga sadoqat tuyg'ularini rivojlantirishga qaratilgan. Maktabgacha ta'lism tashkilotlarida



tarbiyalanuvchilarni Vatanga sadoqat, milliy g'urur va buyuk ajdodlar ma'naviy merosiga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlar muntazam olib borilmoqda[2]. Bu jarayonda xalq og'zaki ijodi, milliy o'yinlar, badiiy adabiyot va tarixiy-madaniy merosdan foydalanish orqali bolalarda milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalarida davlat ramzlari, milliy urf-odat va an'analarni o'rgatish orqali bolalarda milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga qaratilgan tadbirlar tashkil etilmoqda. Bu esa bolalarning ijtimoiy hayotga tayyorlanishi, oilaviy turmushga moslashishi va jamiyatning faol ishtirokchisi bo'lib yetishishiga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, ota-onalar mediasavodxonligini shakllantirish va maktabgacha yoshdag'i bolalarni mediata'lim muhitiga ijobiy tayyorlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Bu esa zamonaviy oilada bolalarning milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi[3]. Ushbu islohotlar natijasida maktabgacha ta'lim tizimida milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar takomillashtirilmoqda. Bu esa kelajak avlodni ma'naviy barkamol, Vatanga sadoqatli va milliy qadriyatlarni qadrlaydigan shaxslar sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili: Maktabgacha yoshdag'i bolalarda milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish masalasi ko'plab ilmiy tadqiqotlarda o'rganilgan[4]. Xususan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni yuksak axloqli qilib tarbiyalashda tarbiyachilar oldida turgan vazifalar haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, bolalarni milliy ruhda tarbiyalashning ahamiyati va vazifalari atroficha yoritilgan. Ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, maktabgacha yosh - vatanparvarlik tuyg'usini o'z ichiga olgan yuqori ijtimoiy tuyg'ularni shakllantirish uchun o'ziga xos imkoniyatlarga ega. Bolaning dunyosi uning oilasidan boshlanadi, shuning uchun oilada ham vatanparvarlik tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Maktabgacha yoshdag'i bolalarda milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish masalasi ko'plab olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar markaziga aylangan. Xususan, O'zbekiston, Rossiya, AQSh va boshqa davlatlarda bolalar tarbiyasiga oid ilmiy ishlarda ushbu yo'nalish bo'yicha qator tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, o'zbek olimlaridan G'. Abduqodirov, R. Nishonova, X. To'rayev, S. Jo'raev kabi tadqiqotchilar milliy g'urur va vatanparvarlik tushunchalarining psixologik-pedagogik asoslarini yoritgan[5]. Shuningdek, xalq og'zaki ijodi va badiiy adabiyot orqali bolalar ongida vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish muhimligi haqida ilmiy asoslangan fikrlar ilgari surilgan. Jahon tajribasiga nazar tashlasak, L. Vygotskiy, J. Bruner, E. Erikson kabi psixologlar bolalar tarbiyasida ijtimoiy va madaniy muhitning o'rni haqida tadqiqotlar olib brogan[6]. Ularning ishlarida milliy identifikasiya, vatanparvarlikning shakllanish bosqichlari va bolalarning sotsializatsiya jarayoni haqida muhim xulosalar mavjud. Masalan, Vygotskiy o'zining madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasida bolaning ongi faoliyati uning tarbiyaviy muhitidan bevosita ta'sirlanishini ta'kidlaydi. Bu esa milliy qadriyatlarni shakllantirishda pedagogik yondashuvning uzviy va tizimli bo'lishi zarurligini anglatadi. Shuningdek, turli statistik tadqiqotlar ham bolalarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishning dolzarbligini ko'rsatmoqda. Jumladan, 2022-yilda o'tkazilgan xalqaro PISA tadqiqotlari natijalariga ko'ra, milliy qadriyatlars asosida tarbiya olgan bolalar jamiyatga moslashish va liderlik ko'nikmalarini egallash borasida yuqori natijalarga



erishgan. O'zbekistonda olib borilgan so'rovnomalari esa bolalar uchun ertaklar, milliy qo'shiqlar va o'yinlar vatanparvarlik tarbiyasining muhim vositasi ekanligini tasdiqlaydi.

Metotologik qism: Mazkur maqolaning metodologiyasi esa sifat va miqdoriy tahlilga asoslangan bo'lib, milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga qaratilgan pedagogik metodlarni o'rganishga yo'naltirilgan. Ushbu metodlar ichida kuzatish, pedagogik tajriba, intervyu va test sinovlari kabi ilmiy usullar qo'llanilgan. Eksperimental tadqiqotlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib borilgan turli ta'limi va tarbiyaviy faoliyatlar tahlil qilinib, ularning samaradorligi baholangan. Shuningdek, tadqiqot davomida maktabgacha ta'lim muassasalarida o'tkazilayotgan vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha amaliyotlar tahlil qilindi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari doirasida milliy qadriyatlarni singdirishga qaratilgan turli dasturlar, jumladan, "Milliy g'urur – millat tayanchi" loyihasi, "Vatanparvar avlod" dasturlari misolida ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan yangi metodlar o'rganildi. Umuman olganda, mazkur ilmiy ish bolalarda vatanparvarlik va milliy g'urur tushunchalarini shakllantirish bo'yicha ilg'or nazariyalar, pedagogik va psixologik yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Tadqiqot davomida olingan natijalar esa maktabgacha ta'lim tizimida milliy tarbiyaning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Natijalar: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadi, maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish samaradorligi ta'lim muassasalarida qo'llanilayotgan pedagogik yondashuvlar, ta'lim dasturlarining mazmuni, ota-onalar bilan hamkorlik va o'yin hamda ijodiy faoliyatlarning qo'llanishiga bog'liq. Pedagogik faoliyatning sifati bu jarayonda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, tarbiyachilarning pedagogik madaniyati va malakasi yuqori bo'lgan muassasalarda bolalar milliy qadriyatlarni yaxshiroq o'zlashtiradi. Milliy qadriyatlarni singdirishga yo'naltirilgan maxsus ta'lim dasturlari joriy etilgan muassasalarda bolalarning vatanparvarlikka oid bilimlari va ko'nikmalari yuqoriroq ekani kuzatilgan. Ota-onalar bilan hamkorlik qilish ham milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda muhim omil sifatida e'tirof etildi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, tarbiyaviy jarayonga ota-onalar faol jalg etilgan bolalar o'z mamlakati, milliy ramzları va qadriyatlari haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lib, ularning vatanparvarlik his-tuyg'ulari yuqoriroq shakllangan. Bundan tashqari, bolalar uchun tashkil etilgan milliy ertak va qo'shiqlarga asoslangan ta'limi o'yinlar ularning vatanparvarlik tushunchalarini mustahkamlashda ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Olingan natijalar asosida kelgusida maktabgacha ta'lim muassasalarida milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlar taklif etildi: tarbiyachilarning pedagogik malakasini oshirishga qaratilgan maxsus trening va seminarlar tashkil etish, ta'lim dasturlarini milliy qadriyatlarni bilan boyitish va amaliyotga tatbiq etish, ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish va ularni tarbiyaviy jarayonga faol jalg etish, bolalarning qiziqishlarini hisobga olgan holda milliy an'analarga asoslangan o'yin va ijodiy faoliyat usullarini yanada kengroq rivojlantirish. Kelajakda bu chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasida maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ulari yanada mustahkamlanib, ularning ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi kutilmoqda. Shu bilan birga, bu jarayonning tizimli va



kompleks yondashuv asosida tashkil etilishi ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Muhokama: Maktabgacha yoshdag'i bolalarda milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish zamonaviy pedagogikaning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib, bu jarayon bolaning shaxsiyati va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ta'lim sohasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, milliy qadriyatlarni singdirish jarayoni bolalarning ijtimoiy muhitga moslashuvi va kelgusidagi fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Shu sababli, maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarga milliy o'zlikni anglash, tarixiy merosni qadrlash va vatanparvarlik hissini uyg'otish bo'yicha tizimli yondashuv talab etiladi. O'tkazilgan ilmiy izlanishlar va tajribalar shuni ko'rsatadiki, bolalarning milliy g'ururini rivojlantirishda ta'lim muassasalarida taqdim etilayotgan dasturlar va pedagogik texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va matab ta'limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan ta'lim dasturlarida milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analar asosida pedagogik faoliyat olib borish zarurligi ta'kidlangan. Xususan, milliy ertaklar, folklor asarlari va qahramonlik eposlarini bolalar ta'limiga integratsiya qilish orqali ularning vatanparvarlik tushunchalarini mustahkamlash mumkin. Shu bilan birga, ota-onalar bilan hamkorlikni rivojlantirish ham ushbu jarayonning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Milliy g'urur va vatanparvarlik tushunchalariga asoslangan ta'lim dasturlari bilan ta'minlangan maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning o'z millati, tarixi va madaniyatiga bo'lgan qiziqishi sezilarli darajada oshgan. Masalan, 2023-yilda O'zbekistonda o'tkazilgan pedagogik tadqiqot natijalariga ko'ra, maktabgacha yoshdag'i bolalarning 78 foizi davlat ramzlarini taniydi, 65 foizi esa o'zining kelib chiqishi haqida oddiy bilimlarga ega. Biroq, bu boradagi ko'rsatkichlarni yanada yaxshilash uchun ta'lim tizimida qo'shimcha innovatsion usullarni joriy etish talab etiladi. Kelajakda maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar tarbiyasini milliy g'urur va vatanparvarlik asosida shakllantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq: pedagoglar uchun milliy qadriyatlarni o'qitishga yo'naltirilgan maxsus treninglar tashkil etish, ta'lim jarayoniga milliy didaktik o'yinlarni keng joriy qilish, bolalar uchun milliy bayramlar va tarixiy sanalar munosabati bilan maxsus tadbirlar uyuştirish, shuningdek, ota-onalar bilan hamkorlikni mustahkamlash orqali oilaviy tarbiyani ta'lim jarayoni bilan uyg'unlashtirish. Shunday qilib, milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimi maktabgacha yoshdag'i bolalarning shaxsiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Kelgusida bu yo'nalishda olib boriladigan islohotlar bolalar ongida mustahkam milliy identifikasiya shakllanishiga hamda ularning ijtimoiy hayotga tayyorligiga xizmat qiladi.

Xulosa: Maktabgacha yoshdag'i bolalarda milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish ularning shaxsiyati va ijtimoiy ongini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bu jarayon samaradorligi ta'lim muassasalarida milliy qadriyatlarni targ'ib qilish, pedagogik yondashuvlarning sifatlari amalga oshirilishi va ota-onalar bilan samarali hamkorlikka bog'liq. Milliy ertaklar, folklor va tarixiy shaxslar haqidagi bilimlar bolalarning vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Kelgusida milliy qadriyatlar asosida ta'lim dasturlarini



takomillashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng qo'llash va tarbiyachilarning malakasini oshirish orqali ushbu jarayonni yanada rivojlantirish lozim. Bu esa yosh avlodning o'z Vataniga mehr-muhabbat bilan qarashiga, o'z milliy o'zligini anglashiga va jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasini egallashiga xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Shohbozbek E. Renewal of the social sphere and stable society system in the process of reforms //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – T. 4. – №. 09. – C. 16-20.
2. Samad o'g'li E. H. Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etilishi va uzlusiz ta'lif tizmi //Ta'lif innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2023. – T. 7. – №. 1. – C. 192-197.
3. Ibragimova G. Ta'lif muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni takomillashtirish mexanizmlari //Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali. – 2023. – T. 1. – №. 1.
4. Najmetdinova, M. M. (2024). Yangi o'zbekistonda ommaviy-madaniy tadbirlar asosida yoshlar ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish istiqbollari. Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture, 4(2), 39-49.
5. Ergashbayev, S. (2025). Yoshlarning ma'naviyat dunyoqarashini rivojlantirishda uzlusiz ta'lif jarayonlarining o'rni (rivojlangan davlatlar tajribasi misolida). Universal xalqaro ilmiy jurnal, 2(2), 3-9.
6. Saidovna, R. S. (2023). Yoshlarni milliy qadriyatlar va urf-odatlar asosida ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashini shakllantirishda oila-ta'lif muassasasi va mahalla hamkorligining ahamiyati. Science Promotion, 4(1), 279-287.